

---

## QO'SHTEPADA "KEKSALAR UCHUN TURIZM OYLI" DAVOM ETMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 20 maydagi "Keksalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan har yili 1 noyabrdan 30 noyabrga qadar "Keksalar uchun turizm oyli" o'tkazilishi belgilangan.

Ushbu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Qo'shtepa tumani Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi hamda Nuroniylar jamoatchilik kengashi tomonidan keksalar va nogironlarni qo'llab-quvvatlash, ularning vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida turli ijtimoiy loyihalar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, viloyatimizning diqqatga sazavor joylariga sayohatlar uyushtirilmoqda.

Oylik doirasida Qiyqi mahalla fuqarolar yig'inidagi bir guruh keksalar va nuroniylar Qo'qon shahridagi Xudoyorxon o'rdasiga va Bog'dod tumanida yangi barpo etilgan shaharchaga bordilar. Sayoxat davomida keksalar va nuroniylar maroqli dam olib qaytdilar.

"Keksalar uchun turizm oyli" tumanimiz bo'ylab davom etmoqda.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook,](#)

2021-11-12 21:54:22